



HAKIM MATNAZAR SHE'RIYATIDA LEKSIK DIALEKTIZMLARNING AKS ETTIRILISHI

Aminova Feruza Anvar qizi

ToshDO'TAU magistranti

shahbozafzalov@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7982008>

ARTICLE INFO

Received: 21th May 2023

Accepted: 28th May 2023

Online: 29th May 2023

KEY WORDS

Dialektizmlar, leksik
dialektizmlar, fonetik
dialektizmlar, morfologik
dialektizmlar, Xorazm shevasi,
badiiy matn.

ABSTRACT

Bilamizki, har bir davr o'z fani oldiga taraqqiyot ilgari surayotgan muammolar, ijtimoiy ehtiyojlar asosida yangidan-yangi talablarni qo'yadi. Muammolarning yechimi esa, albatta, yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Zero, taraqqiyotning mohiyati ham aynan shunda. Tizim sifatida o'rganilgan o'zbek tilida lison va nutqni farqlash, dialektlarni o'rganish o'zbek tilining sof turkona xususiyatlarini ochish bo'yicha qator vazifalarning ko'ndalang bo'lishi ana shu dastlabki masalalarning hal etilishi natijasida sodir bo'ldi. Mazkur maqola o'zbek dialektologiyasida leksik dialektizmlarni Matnazar Abdulhakim ijodida tahlil etishga qaratilgan.

KIRISH

Ma'lumki, dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik ko'rinishlari mavjud bo'lib, Matnazar Abdulhakim she'riyatida ularning barchasidan keng va unumli foydalangan. Zero, yozuvchi asarlarining eng birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir. Odatda, shevadagi fonetik o'zgachalikdan badiiy matnda estetik maqsadda foydalaniladi, chunki bunday o'zgachalik, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi. Qolaversa, hududiy mansublikni ta'kidlaydi, qahramon nutqining individualligini ta'minlaydi.

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko'rinishidir. Shu jarayonda badiiy so'z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o'tadigan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etilgan. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.¹ Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta'sirchan kuchi orqali bir asarda qo'llangan dialektizm keyingi asarlarga o'tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o'zlashib ketishi mumkin.

Badiiy asarlarda qo'llaniladigan dialektizmlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni

¹ B. Fayzullayev. O. Xidirov. Dialektizmlar va kontekst. 2010-y. 15 - bet



ishlatadilar. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aks ettirish bilan birga "badiiy nutqda" muayyan estetik funktsiya bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qiymat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yor, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanilishi bilan bog'liqdir.

Dialektologiya o'rganiladigan badiiy nutq uslubi bilan bog'liq til vositalari badiiy asar tilining bir qismi sifatida dialektizmni o'z ichiga oladi. Og'zaki nutqdan olingan dialektizmlar yozuvchning ixtiyorida bo'lganida, u ularni badiiy matn tilida o'zaro bog'lash bilan har bir dialekt so'zni ishning umumiy g'oyasiga bo'ysundiradi va bu to'g'ridan-to'g'ri emas, balki hikoya qilish usullari orqali amalga oshiriladi.

Dialekt so'zlar umumiy adabiy tilga kirmaydi. Biroq, nutqiy so'zlashuvlar orqali ular adabiy tilga kirishi mumkin.

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarining aks etishi dialektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizm, morfologik dialektizm va leksik dialektizm turlariga ega.

Ma'lumki, "dialektizmlar – bayon etish uslubi sifatida badiiy adabiyot tilida foydalaniladigan dialektik so'zlar"dir.² Ular badiiy asar tilining boy, jozibador va ta'sirchan bo'lishida muhim o'rin egallovchi vositalardan biri sifatida ma'lum bir ijodkor asarlarida voqelanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI METODOLOGIYA

Milliy tilning turli dialekt va shevalariga tegishli bo'lgan original so'zlar faqat dialektolog va tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining mavzui bo'lib qolmay, balki muhim badiiy-tasviriy vosita sifatida so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar va boshqalarning ham diqqatini o'ziga jalb etadi. Dialektal so'zlarning o'ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatida badiiy tekstda ma'lum darajada qo'llanilishi qonuniy hodisadir. Shunga ko'ra, bunday dialektal so'zlarning semantik-stilistik xususiyatlarini badiiy asarlar tili materiali asosida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.³ X.Doniyorov o'zbek tilining qipchoq dialektini tasnif qilar ekan, umuman qipchoq tillari haqida ularning tiplari va xususiyatlari haqida N.A.Baskakov, F.Abdullayev, V.V.Reshetov qarashlariga suyanadi va qipchoq shevalarini umumiy beshta guruhga ajratadi. Xorazm qipchoq shevalarini Shimoliy Xorazm guruhiga (shimoliy Xorazm qipchoq dialekti) deb nomlaydi. Bu guruh qipchoq shevalari E.D.Polivanov, F.Abdullayev, A.Ishayev va Y.Ibragimovlar tomonidan o'rganilganini aytadi va bu guruh tarkibiga Qoraqalpo'istondagi qipchoq shevalarini ham qo'shish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu guruh qipchoq shevalarida o'g'uz elementlarining ko'plab uchrashi bilan boshqa qipchoq shevalaridan farqlanadi.

Badiiy asar tilining boy va jozibador bo'lishida dialektizmlarning o'rni va roli muhimdir. "Badiiy asar tilining ifodaliligi, qahramonlar nutqining individuallashtirilganligi ko'p jihatdan o'rinli va me'yorida qo'llangan sheva unsurlariga bo'liq"⁴.

"Yozuvchilar o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi

² Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. 1966. Б. 131.

³ Doniyorov X, Mirzayev S. So'z san'ati. – Toshkent: O'zdamnashr, 1962. – 316 b.

⁴ Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. Т., Маънавият, 2002. Б. 29.



atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning mahalliy belgisini bildirsaгина dialektal so'zlardan foydalanishi mumkin"⁵

Matnazar Abdulhakim, avvalo, xalq yozuvchisi, millatiga jonkuyar ijodkor sifatida xalqning ma'naviy mulkidan foydalanmasligi, u suv ichgan buloqlardan bahramand bo'lmasligi mumkin emas. Bugungi kunda yozuvchi o'z tili, uslubi va ovozigaga ega ijodkorlardan biri sifatida adabiyot maydonida jadal suratlar bilan qalam tebratmoqda. Hozirgi kunda mavjud dialektlar uch lahjaga: qarluq-chigil-uyg'ur, qipchoq va o'g'uz lahjalariga bo'lib o'rganiladi. Bu lahjalarning har biri o'ziga xos xususiyatlariga – fonetik, morfologik va leksik jihatdan farqlanadigan qator lingvistik belgilariga ega. Ushbu lingvistik xususiyatlariga ko'ra yozuvchi asarlarida keltirilgan dialektizmlarni tadqiqotimizda quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Fonetik dialektizmlar.
2. Morfologik dialektizmlar.
3. Leksik dialektizmlar.

Matnazar Abdulhakim she'rlarida, asosan, Xorazm shevasiga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlar obrazlilikni ta'minlab, badiiy asarning jozibadorligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik, leksik va Grammatik dialektizmlar sifatida tasnif qilganligini kuzatish mumkin. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Leksik dialektizmlar ham o'z navbatida ichki guruhlarga bo'lib o'rganiladi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar va semantik dialektizmlar. Muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o'zlariga xos bo'lgan ur-odatlarining nomlari etnografik dialektizmlar deb yuritiladi. Bunday so'zlar tasvirning realligini ta'minlaydi. Biror so'z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo'lib, shevada adabiy tilda bo'lmagan ma'nosi bilan qo'llana oladigan so'zlar semantik dialektizmlar deb yuritiladi.

Fonetik dialektizmlar. Adabiy asarning badiiyiligini ta'minlovchi fonopoetik vositalardan biri tovushdir. "Tovushlar... asarlar ohangdorligini, emotsional ta'sirchanligini oshirishda muhim uslubiy vosita bo'ladi"⁶.

Matnazar Abdulhakim she'rlaridagi shevalarning talaffuzi sodda va yengil bo'lishi hamda mahalliy kolorit, xududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirishi unli va undosh tovushlarning turli xil kombinator va pozitsion o'zgarishlariga mos holatda yuzaga keladi.

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Masalan, on əkkı - o'n ikki (Marg'ilon), galdı - keldi (Xorazm).

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo'llanishidir. Masalan, Shəttə - shu yerda("Qora ko'zlar"), Dım - juda, gech galdıñiz(Xorazm).

Leksik dialektizm shevaga oid so'zlarning badiiy asarlarda qo'llanishidir. Masalan, dərpanmäñlä - bezovtalanmanglar(Xorazm), psək - paxsa, Turkiston).⁷

Leksik dialektizmlar, ko'pincha, og' zaki so'zlashuv nutqiga hamda badiiy asar personajlari nutqiga xos bo'lib, qalam ahli asarning yanada qiziqarli bo'lishini

⁵ Шомақсудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1983. Б. 57.

⁶ Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. - Toshkent. 1985. 65- bet.

⁷ S. Ashirboyev. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent. 2022- y. 29 - bet.



ta'minlashda ulardan unumli foydalanadi. Matnazar Abdulhakim ham shevaga xos so'zlarni o'z she'riyatiga mohirlik bilan singdirishga harakat qilingan. M.Yo'ldoshev shevaga xos leksik dialektizmlarni uch turga bo'lib o'rganishni taklif etadi va ularni sof leksik, etnografik va semantik dialektizmlar turlarini farqlaydi. Yozuvchi o'z asarlarida ularning har uchala turidan ham o'rinli va unumli foydalangan. Odatda, adabiy tilda ma'nodoshi mavjud bo'lganlari sof dialektizmlar hisoblanadi. Dialektal so'zlarni badiiy adabiyotda qo'llashda yozuvchilarturli usullardan foydalanadilar. Ayrim mualliflar shevaga oid so'zni izohsiz ishlatib ketsalar, ayrimlari sahifa tagida uning ma'nosini keltirib boradilar.

NATIJALAR

Matnazar Abdulhakim ijodida adabiy tildagi she'rlarida dialektizmlarning qo'llanishini va Xorazm shevalarida yozilgan she'rlarida Xorazm shevalarining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari aks etganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada maqolada Abdulhakim Matnazarning adabiy tildagi she'rlarida leksik dialektizmlarning aks etishi tahlilga tortiladi.

Matnazar Abdulhakim she'rlarida quyidagi Xorazm dialekti, asosan, Gurlan shevasiga xos leksik dialektizmlarni uchratish mumkin:

Bugun bir orqayin tin olar Toshkent,
Tongda bir xotirjam kerishadi.
Sen kecha Toshkentga jo'nab ketib eding,
Toshkent diydoringga erishadi.

Ushbu parchadagi [arqajin] so'zi adabiy tildagi *bemalol*, *bamaylixotir*, *xotirjam* so'zlarining Xorazm shevasidagi varianti hisoblanadi. Buxoro viloyati Qorako'l tumanida ham aynan shu ma'noda [arqayin] so'zi ishlatiladi. *Qism*, *parcha* ma'nosini bildiruvchi [bolak] so'zi Xorazm shevalarida *boshqa* ma'nosida qo'llanadi. Shoir ham she'rda aynan *boshqa*, *boshqacha*, *o'zgacha* kabi so'z ma'nolarini ifodalash uchun foydalangan.

Ikki daryo madhi bitilgan she'rlar
Belga yor bog'lagan qiyiqlarimda.
...Men tushlar ko'raman. Manglayim terlar.
Mudhish bir istehzo miyiqlarimda.

She'riy parchadagi [manglajim] so'zi adabiy tildagi *pehona* so'zining tilimizga mo'g'ul tilidan kirib kelgan varianti bo'lib, o'g'uz lahjasi shevalarida qo'llanadi. Xorazmda *manglayi qaro*, *manglayi sho'r* iboralari ham qo'llanadi.

Jang to'xtadi. Olar barcha tin.
Lab tekkizdi otim maysaga.
Men horidim. Yomon charchadim.
Suyanaman birpas nayzaga.



[Harımaq] so'zi adabiy tildagi *charchamoq* so'zining o'guz shevalaridagi shakli hisoblanadi. Shoir Matnazar Abdulhakim horidim, charchadim so'zlarida ketma-ket qo'llab, ma'noni yanada kuchaytirgan.

MUHOKAMA

Men senga atalgan shunday mevaman,
Yuragimni ushat, ol shu so'zimni.
Sendan ayamayman, seni sevaman.
Men uzib beraman senga o'zimni.

Ushbu she'riy parchada [üşät] dialektizmini qo'llash bilan shoir Matnazar Abdulhakim *yuragimni bo'laklarga bo'l, sindir demoqchi bo'lgan*. Xorazm shevalarida, ko'pincha, bu so'z *nonni ushatmoq* shaklida uchraydi. Qiz va yigit fotihalanayotgan paytida ham boshqa shevalardagi kabi *non sindirish* emas, *non ushatish birikmasi qo'llanadi*.

Bu yerda har qarich tuproqda
Ming o'lim chang solar tirilib.
Bir-birining quchoqlarida
Ketayotir bari qirilib...

[Bäri] *barchasi, hammasi, bori* so'zlarining Xorazmda qo'llanuvchi shakli, bu so'z adabiy tilda ham qo'llanadi.

Mayli. Har qadaming men uchun faxr,
Sira elashtirib bilmayman sani.
Tushunaman, sevish o'ir...ko'p o'ir
Hamma odamni va hamma narsani.

[äläštirmaq] adabiy tildagi *ko'ngilga olmoq, ranjimoq* so'zlarining og'uz lahjasidagi shakli. Shoir ushbu misralari bilan hattoki sen hamma odamni, hamma narsani sevsang ham, men ko'ngilga olmayman, sendan ranjimayman, aksincha, sening har bir ishing, qadaming men uchun faxr demoqda. Bu so'z adabiy tilda ham, boshqa shevalarda ham uchramaydi. Bu so'zning adabiy tildagi ekvivalenti gila qilmoq, arazlamoq so'zlaridir. Xorazm shevalarida [äläštirip bilimman] shaklida uchraydi. Demak, shoir bu bilan "sendan sira gina qila olayman" – demoqchi.

Matnazar Abdulhakim she'rlarida quyidagi Xorazm dialekti, asosan, Gurlan shevasiga xos leksik dialektizmlarni uchratish mumkin:

Ilg'ab har bir so'zdan qutlug' ziyoni,
Ko'zlarini ochdi bir parcha voha.
Har yurakda pinhon ming bir dunyoni
Yoritib yubordi Otajon og'a.



Bu parchada [aya] adabiy tildagi aka so'zi o'rnida qo'llangan. Bu so'z Toshkent shevasida aka shaklida uchraydi. Adabiy tilda mavjud bo'lgan aka so'zi esa, Xorazm shevalarida adabiy tildagi āta so'zi o'rnida qo'llanadi.

Saralayman xipchinlarni ham,
Yo'l-yo'lakay qutlug' havasda.
Yashilana boshlarlar bir-bir
Guldastaga do'narlar asta.

Bir tong nogoh bo'ldim men shabnam,
So'ng bulutga, yomg'irga do'ndim.
Maysalarga aylandim kam-kam,
Tuproq bo'lish dardiga ko'ndim.

[donmäq] adabiy tilda aylanmoq, o'zgarmoq so'zlarining Xorazm shevasidagi shakli bo'lib, mumtoz adabiyotda ham qo'llanadi.

Va sen yashaydiansan uzoq va mas'ud,
Bunday saodatga haq bir jazo bor.
Aytsang-aytmasang ham, qanchalik sevma,
Jon bor yerda axiyr bir kun qazo bor.

[bä: ye:da] bu so'z "bor joyda" iborasining ma'nosiga to'g'ri keladi. Ushbu so'zni sintaktik-stilistik dialektizm ya'ni, gap qurilishidagi shevaga xoslik deyishimiz ham mumkin.

Sening o'y ko'zlaring ilinjida
Ne bir ko'zlar chaqnab jovdirar,
Ne bir, ne bir arslonlar ohu,
Arslonning qoshida kabi dovdidirar.

[ne bir] so'zi "qay bir" iborasining ma'nosiga to'g'ri keladi. Bu so'zni ham sintaktik-stilistik dialektizm ya'ni, gap qurilishidagi shevaga xoslik deyishimiz ham mumkin.

Dastalayman gullarni bir-bir,
Sururlanib baxtli hayotdan...
Biroq yana shivirlar kampir
«Xipchinni ham chiqarma yoddan...»

Bu parchada esa [çiqärmä jäddän] deya, sedan chiqarma, unutm demoqchi.

Chiqdi yodingdan nigohim, bo'ldi ovozim unut,
Ko'zlarimni chirt yumib oldim, tovushsiz o'kradim



[jädinän] esingdan soʻzining Xorazm shevasidagi shakli. Shoir “chiqdi yodingdan nigohim” - deya nigohimni esingdan chiqarding, unutding demoqchi boʻladi.

Menga darkordir malak, Majnun uchun Laylo kerak,
Menga darkordir falak, Majnun uchun sahro kerak
Bilolmam bormu darkorim sango bir ozgina, aslo,
Bilib qoʻy qomati shamshod, mango sen koʻp kerakdiansan.

[därkärdi:] kerakdir soʻzining Xorazm shevasidagi shakli. Shoir Matnazar Abdulhakim “menga kerakdir malak, menga kerakdir falak” demoqchi boʻladi.

Dildagi har bir umid yoʻlingda soʻnmasdan burun
Miltirab yulduz kabi un chekmay ingramogʻ i bor.

Ushbu baytda [burun] soʻzi avval, ilgari kabi maʼnolarni anglatadi, umid “yulduz” kabi [un çekmaq] - ingrashi, dodlashi tasvirlangan.

Arang miltillaydi olisda ovul,
Tim-tirs... ilgʻanadi bezovta ruhlar.
Oynakoʻl tushiga kiradi dovul,
Har bargda bir shamol dong qotib uxlar.

Ushbu misralarda qoʻllangan [tim-tirs] soʻzini shoir Matnazar Abdulhakim jim-jit, sokin soʻzlari oʻrnida ishlatadi. Xorazm shevalarida bu soʻz “suv quygandek jim-jit” iborasi oʻrnida ham qoʻllanadi.

Asta qilich serpab qiyo qarashlar,
Yurakka soladi hech bitmas yaro.
Lekin zid kelsa ham dunyoqarashlar,
Bizni dorga tortmas Husayn Boyqaro.

Yuqorida shoir Matnazar Abdulhakim zarb bilan urmoq, solmoq, siltamoq soʻzlari oʻrnida [serpamäq] soʻzini qoʻllaydi.

Bilmam, uchdim qanchalar chaqrim,
Goh magʻlub, goh gʻolib keldim men.
Bol deb mehrim, asal deb faxrim –
Topganimni olib keldim men.

Ushbu misralarda esa shoir asal soʻzining ham adabiy tildagi variantini ham adabiy tildagi muqobilini maʼnoni yanada kchaytirish uchun qoʻllaydi: “Bol deb mehrim, asal deb faxrim”.



XULOSA

Shuni ta'kidlash lozimki, dialektlarda bir tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri bo'lib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta'sirchan kuchi orqali bir asarda qo'llangan dialektizm keyingi asarlarga o'tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o'zlashib ketadi.

T/R	Leksik dialektizm	Adabiy tildagi muqobili
1	arqayin	bemalol, bamaylixotir, xotirjam
2	bolak	boshqa, boshqacha, o'zgacha
3	manglajim	peshonam
4	harimaq	charchamoq
5	ushat	bo'laklarga bo'lmoq, sindirmoq
6	Bari	barchasi, hammasi, bori
7	alastirmaq	ko'ngilga olmoq, ranjimoq
8	aya	aka
9	donmaq	aylanmoq, o'zgarmoq
10	ne bir	qay bir
11	jadiqnän	esingdan
12	darkardi:	kerakdir
13	burun	avval, ilgari
14	un çekmaq	ingramoq, dodlamoq
15	çiqärmä jäddän	esdan chiqarma, unutma
16	tım-tırs	Jim-jit, sokin
17	serpamäq	zarb bilan urmoq, solmoq, siltamoq
18	bäl	asal

References:

1. Ахманова, О.С. (1966). Словарь лингвистических терминов.
2. Yo'ldoshev, M. (2002). Cho'lpon so'zining sirlari. Ma'naviyat.
3. Qilichev, E. (1985). O'zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent.
4. Ashirboyev, S. (2022). O'zbek dialektologiyasi. Toshkent.
5. J.K. Chambers and Peter Trudgill. Cambridge University Press.-2004.
6. Fayzullayev, B., Xidirov, O. (2010). Dialektizmlar va kontekst. 15
7. Doniyorov, X., Mirzayev, S. (1962). So'z san'ati. O'zdamnashr. 316
8. Shomaqsudov, A. va boshq (1983). O'zbek tili stilistikasi. O'qituvchi. 57.